

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNOV KOBUL BEKNAZAROVICH

**INVESTITSIYAVIY SALOHIYATNI OSHIRISHDA
MARKETING STRATEGIYALARINI QO‘LLASH
(Navoiy viloyati misolida)**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
economic sciences**

Tursunov Kobul Beknazarovich

Investitsiyaviy salohiyatni oshirishda marketing strategiyalarini qo'llash
(Navoiy viloyati misolida)..... 5

Турсунов Кобул Бекназарович

Применение маркетинговых стратегий для повышения
инвестиционного потенциала (на примере Навоийской области)..... 25

Tursunov Kobul Beknazarovich

Utilizing marketing strategies to boost investment possibility (a study of
Navai region)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 54

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURSUNOV KOBUL BEKNAZAROVICH

INVESTITSIYAVIY SALOHIYATNI OSHIRISHDA
MARKETING STRATEGIYALARINI QO‘LLASH
(Navoiy viloyati misolida)

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2624 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sah (tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshov Mansur Pulatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ergashev Alijon Hojimatovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 12 " 12 kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871)239-28-72; faks (99871)232-01-49; e-mail: tdiu@tsue.uz.


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871)239-28-72; faks (99871)232-01-49; e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "12" 03 kuni tarqatildi.
(2023-yil "12" 03 dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi).




G.Q. Abduraxmonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor


R.X. Karlibayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor


Sh.Dj. Ergashxodjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy inqirozli davrdan keyingi va nostandart iqtisodiy tendensiya sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishga bo‘lgan talabning yanada ortib borishi hudud (mintaqa)larda investitsion imkoniyatlardan oqilona foydalanish, ichki va foydalanilmayotgan salohiyat (imkoniyatlar)ni ishlab chiqarishga safarbar etishda ishlab chiqaruvchi va iste’molchi talabini uyg‘un amalga oshiruvchi hududiy marketing strategiyasi va vositalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Investitsiyalarning global oqimlari 2021-yilda 1,58 trillion AQSH dollarni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 64 foiz o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Rivojlanayotgan va dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi 2021-yilda atigi 2,5 foizni tashkil etdi”¹. Bugungi kunda jahonda raqobatning shiddat bilan rivojlanishi va innovatsion mahsulot (xizmat)larga bo‘lgan talabning jadal ortib borishi sharoitida har bir hududning investitsion faoliyatini takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda investitsiyaviy salohiyatni oshirish bo‘yicha marketing strategiyalarini samarali qo‘llashda hududiy ustunlikka ko‘ra ishlab chiqarishni maqsadli tashkil qilish, raqobatbardosh marketing siyosatini ishlab chiqarishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, hududlar imijini shakllantirish (rivojlantirish) kabi yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada mintaqaviy xususiyatlardan kelib chiqqan holda brend ishlab chiqarish marketing strategiyasi va vositalarini takomillashtirish, hududlar faoliyati samaradorligini baholash uslubiyotini “jahon – milliy – hudud” rivojlanishi zanjiriga ko‘ra yangi uslubiy yondashuvlarni asoslash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilinadigan investorlarni rag‘batlantirish kabi mavzularga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasini sifat jihatdan yangi pog‘onaga olib chiqish, ishlab chiqarishni zamonaviy menejment talablari asosida tashkil qilish, hududlarning xususiyatlarini e’tiborga olgan holda investitsiya salohiyatini oshirish va eksportga mo‘ljallangan raqobatbardosh mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarish hajmini oshirib borish kabilarga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Navoiy viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollari hamda har bir tuman va shaharning “o‘shish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash”² kabi vazifalar belgilangan. Bu borada erkin iqtisodiy zona samaradorligini baholash yondashuvi rejalashtirilgan tadbir ijrosiga ko‘ra baholash tizimini takomillashtirish, muayyan hudud brend marketing arxitekturasini shakllantirgan holda amal qilishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini asoslash,

¹ World Investment Report 2022 Investing in Sustainable Recovery. © 2022, United Nations. UNCTAD/WIR/2022

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son “2022–2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

marketing arxitekturasiga ko‘ra hududga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmining prognoz parametrlarini aniqlash, raqamli texnologiyalarga ko‘ra hududiy investitsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi PF–5643-son “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 15-maydagi PF–5719-son “Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 18-avgustdagi PF–6042-son “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 28-yanvardagi PQ–4135-son “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-sentyabrdagi 592-son “Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 30-martdagi 169-son “O‘zbekiston respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hududning investitsiyaviy salohiyatini oshirishda marketing strategiyasidan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ko‘plab xorijlik olimlarning tadqiqot yo‘nalishidir. Bu borada Bamituni A., Rehailia H., Saadi I., Paswanb K., Margie T., Parvex F., Kotler P., Cuong M., Barnes J.G., Wells, L.T.³ kabilarning ilmiy ishlari klassik hududiy marketing nazariyalarini o‘z ichiga olgan. Ko‘rsatib o‘tilgan tadqiqotchilarning hududiy

³ Bamituni Abamu. Introducing Investment Promotion: A Marketing Approach to Attracting Foreign Direct Investment November 2019 International Journal of Marketing Studies 11(4):91. DOI:10.5539/ijms.v11n4p91.; Rehailia Hassib, Saadi Ibtissem. Territorial marketing: A tool for developing the attractiveness of territories. ITU A[Z]. Vol 15 No 3. November 2018. 61-69; K. Paswanb, and Margie T. Country Resources, Country Image, and Exports: Country Branding and International Marketing Implications. Journal Of Global Marketing. 2016, VOL. 29, NO.4 , 233–246; Parvex, F. (Association S. pour le service aux régions et aux communes). (2009). Introduction. Marketing territorial quand le territoire devient produit. In Marketing territorial. Quand le territoire devient produit.; Kotler, F. Marketing mest: Privlecheniye investitsiy, predpriyatiy, jiteley i turistov v goroda, kommuny, regiony i strany Yevropy / F. Kotler, K. Asplund, I. Reyn, D. Xayder; [per. s angl. M. Akkaya pri uchastii V. Mishuchkova]. – Sankt-Peterburg: Stokgolm. shk. ekonomiki, 2005. – 375 s.; Mai The Cuong. The Marketing Approach to FDI Attraction. Vietnam Development Forum and National Economics University February 2005.; Barnes J.G. Exploring the importance of closeness in customer relationships. American marketing Association Conference, Dublin, June, 1997. P. 227; Wells, L. T., Jr. "Marketing Strategies to Attract Foreign Investment." In Multinationals in the Global Political Economy, edited by L. Eden and E. Potter, pp. 168–186. New York: St. Martin's Press, 1993.;

marketing nazariyasiga qo‘shgan salmoqli hissasiga qaramay, ularda hududlarni investitsion jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanishning investitsion marketing salohiyatini, hudud brendini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida bu borada Selix T.N., Karpova, T. Yu., Zaysev A.G., Ponomaryova N.N., Ponomaryov A.N., Bezrukova T.L., Firsov Yu.I., Olenikova Z.Yu., Pankruxin A.P singari olimlar⁴ tadqiqotlar olib borganlar. Amalga oshirilgan ilmiy ishlarda hududlarning investitsion salohiyatidan foydalanishda marketing strategiyalaridan foydalanish va investitsion marketing siyosatini yuritish muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan.

O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish, marketing zamonaviy strategiyalaridan foydalanishning umumiy jihatlari Ergashev A.H., Mustafakulov Sh.E., Batirova N.Sh., Murtazayev I.B., Valiyev B.B., Rajabov N.R., Ayubov I.I. va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rsatib berilgan⁵. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamiga qaramay, hududiy investitsion rivojlanishda marketing strategiyalaridan foydalanish, hudud imijini shakllantirish va investitsion salohiyatdan foydalanishda marketing strategiyalaridan foydalanish, aholi-ning farovonligini oshirishga qaratilgan istiqbolli investitsion dasturlarni belgilashda marketing strategiyalaridan foydalanish masalalari mukammal va tizimli ravishda o‘rganilmagan. Ushbu muammoni hal etish zaruriyati tadqiqot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilashga imkoniyat yaratadi.

⁴ Целых Т.Н. Формирование маркетингового потенциала территории. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: маркетинг. Дис. соис. уч. ст. к.э.н. Москва – 2018.; Карпова, Т. Ю. Основные принципы маркетингового подхода в муниципальном управлении – Электрон. текстовые дан. – Загл. с экрана. – Описание основано на версии, датир.: июнь 28, 2016.; Зайцев А.Г. Развитие институциональной среды маркетинговой деятельности региона: теория и практика Специальность 08.00.05 – экономика и управление народным хозяйством (маркетинг). Дис. соис. уч. ст. к.э.н. Ростов-на-Дону – 2015; Пономарёва Н.Н., Пономарев А.Н., Безрукова Т.Л. Теоретические аспекты инвестиционного маркетинга // Лесотехнический журнал. 2013. № 2. С. 189–193.; Фирсов Ю.И. Формирование имиджа территории для обеспечения ее инвестиционной привлекательности. Автореферат Дис. соис. уч. ст. к.э.н. 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: маркетинг, региональная экономика. Москва 2013.; Оленикова З.Ю. Инвестиционный маркетинг как инструмент развития российских промышленных предприятий // Известия Волгоградского государственного технического университета. 2007. Т. 12. № 7. С. 100–102.; Панкрухин А.П. Маркетинг территорий: маркетинг региона. / Маркетинг в России и за рубежом, 2004. №2. С.9-11.;

⁵ Mustafakulov Sh.E. O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O‘z.R.Bank moliya akademiyasi. 2017-y.; Ergashev A.H.. Hududlarning investitsion muhit jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish istiqbollari (Farg‘ona viloyati misolida). 08.00.11 – Marketing, 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo‘yicha i.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2018-yil; Batirova N.Sh. Innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida mintaq sanoati rivojlanishining yo‘nalishlari (Toshkent viloyati misolida). 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot. I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021; Murtazayev I.B. Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. 08.00.12-Mintaqaviy iqtisodiyot. 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot. I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021; Valiyev B.B. O‘zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. 08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot” Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of science) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021.; Rajabov. N.R. Investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirish (Navoiy EIZ misolida). 08.00.13 – Menejment. I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021-yil; Ayubov I.I. O‘zbekiston turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati (iqtisodiyot fanlari). I.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2021-yil;

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170928323 raqamli "Mintaqalar eksport salohiyatini oshirishda investitsiya dasturlaridan samarali foydalanish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi marketing strategiyalarini maqsadli qo'llagan holda hudud investitsiyaviy salohiyatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududning investitsiyaviy salohiyatini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish nazariyasi va zamonaviy usullarini, investitsiyaviy salohiyatini oshirishda hudud imijini yaratishning o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va investitsiyaviy salohiyatini tahlil qilish;

viloyatning marketing strategiyasi asosida investitsiyaviy salohiyatni oshirish imkoniyatlarini ekonometrik tahlil qilish;

Navoiy viloyatining investitsiyaviy salohiyatini marketing strategiyasi asosida oshirish omillarini aniqlash;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Navoiy erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilash;

marketing va axborot-tahlil vositalari asosida Navoiy viloyatining investitsiyaviy salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Navoiy viloyatining ijobiy investitsion imijini yaratishda hududiy brend strategiyasidan foydalanish bo'yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

marketing strategiyalarini maqsadli qo'llagan holda hudud investitsiyaviy salohiyatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Navoiy viloyati hokimligining investitsion marketing faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib hududning investitsiyaviy salohiyatini oshirishda marketing strategiyasidan foydalanish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida induksiya, deduksiya, sintez, ilmiy bilish, ekonometrik, statistik tahlil, so'rov, tanlanma kuzatuv, ekspert baholash, GE-McKinsey matritsali baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy hokimiyat, iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha obyektlari hamkorligiga ko'ra aholi, raqobat muhiti va tashqi investorlarda shakllangan obrazga yo'naltirilgan "Navoiy" brend marketing arxitekturasi asoslangan;

mintaqani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni prognozlashtirish yondashuvi hudud brend marketing arxitekturasi e'tiborga olgan holda takomillashtirilib, Navoiy viloyatiga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmining 2026-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari asoslangan;

Navoiy erkin iqtisodiy zonasini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan samarali boshqaruvini amalga oshirishda viloyat hokimligi qoshida “hududiy brendni boshqarish direksiyas”ni tashkil qilish taklif etilgan;

erkin iqtisodiy zonaning hudud iqtisodiy o‘shiga ta’sirini oshirish, zona rezidenti maqomiga ega tashkilot va yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq-bojxona imtiyozlarini berishni e’tiborga olgan holda EIZ samaradorligini baholash yondashuvi rejalashtirilgan tadbir ijrosiga ko‘ra 5 ballik tizim asosida 90 %dan yuqori bo‘lganda, 4 ball – 70 %dan 90 %gacha, 3 ball – 50 %dan 70 %gacha, 2 ball – 35 %dan 50 %gacha hamda 1 ball – 35 %gacha baholash bo‘yicha takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

hududning investitsion marketing boshqaruviga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining konseptual sxemasi tavsiya etilgan;

hududning ijobiy investitsion imijini yaratishga imkon beradigan tashkiliy mexanizm taklif etilgan;

Navoiy viloyatining investitsion marketing imkoniyatlarini aks ettiruvchi investitsiya portalini raqamli marketing strategiyalaridan (SEO, kontent marketing) foydalanish takliflari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan usul va nazariy yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlar bazasining O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi, Navoiy viloyati hokimligi va Navoiy erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi ma’lumotlari asosida shakllanganligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati muayyan hududning brend marketing arxitekturasini shakllantirishning uslubiy yondashuvi ishlab chiqilgani, mintaqani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni prognozlashtirish parametrlarining aniqlik darajasini marketing arxitekturasiga ko‘ra takomillashtirilgani, erkin iqtisodiy zonaning hudud iqtisodiy o‘shiga ta’sirini oshirishga ko‘ra mazkur zonalar samaradorligini baholash yondashuvi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mintaq (hudud)larni investitsion rivojlantirishga qaratilgan marketing strategiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqarishda, istiqbolli loyihalarni asoslashda hamda oliy ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlari, jumladan, “Tarmoqlar va sohalar marketingi”, “Brending”, “Marketing asoslari”, “Innovatsion marketing” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Investitsiyaviy salohiyatdan foydalanishda marketing strategiyalarini qo‘llash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy hokimiyat, iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha obyektlari hamkorligiga ko‘ra aholi, raqobat muhiti va tashqi investorlarda shakllangan obrazga yo‘naltirilgan “Navoiy” brend marketing arxitekturasi asoslangan holda

tashkiliy-iqtisodiy jihatdan viloyat hokimligi qoshida “hududiy brendni boshqarish direksiyasi”ni tashkil qilish bo‘yicha taklif Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan “Navoiy viloyatining 2023-yilga mo‘ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 22-dekabrda 02/21-3/10-7009-son ma‘lumotnomasi).

Mazkur takliflarning joriy

qilinishi viloyatda sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarni istiqbollari hamda hududlarning “o‘shish nuqtalari”ni belgilashning aniqlik darajasini oshirishga hamda ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarni aniqlashga muayyan darajada xizmat qilgan;

hudud brend marketing arxitekturasini e‘tiborga olgan holda mintaqani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni prognozlashtirishning takomillashtirilgan yondashuvi va viloyatga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmining 2026-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27- apreldagi 217-son “2022–2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar parametrlari” hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish

vazirligi tomonidan “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari”ni tayyorlashda foydalanilgan (Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 22-dekabrda 02/21-3/10-7009-son ma‘lumotnomasi). Mazkur takliflar mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognozlashtirish uslubiyotiga brend nuqtayi nazaridan aholi, raqobat muhiti va tashqi investorlarda shakllangan obrazga yo‘naltirilgan yondashuvni singdirish asosida mintaqada ishlab chiqarish hajmi, investitsion loyihalar soni va hajmini yanada oshirishga xizmat qilgan (14566 mln AQSH dollari miqdorida jami 3306 ta investitsion loyihalarni ishga tushurish ko‘zda tutilgan);

Navoiy erkin iqtisodiy zonasini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan samarali boshqaruvini amalga oshirishda viloyat hokimligi qoshida “hududiy brendni boshqarish direksiyasi”ni tashkil qilish taklifi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan “Navoiy viloyatining 2023-yilga mo‘ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi” va boshqa hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 22-dekabrda 02/21-3/10-7009-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif erkin iqtisodiy zonani samarali boshqaruvga ko‘ra 2021-yilda sanoat tarmoqlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining 11,9 foizga oshishiga, sanoat sohasida 2,0 trln. so‘mlik 229 ta loyihaning ishga tushirilishiga va 4 867 ta ish o‘rinlarining yaratilishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini baholash yondashuvi rejalashtirilgan tadbir ijrosiga ko‘ra 5 ballik tizim asosida 90 %dan yuqori bo‘lganda, 4 ball –

70 %dan 90 %gacha, 3 ball – 50 %dan 70 %gacha, 2 ball – 35 %dan 50 %gacha hamda 1 ball – 35 %gacha baholash bo'yicha takomillashtirilgan yondashuv Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan "Navoiy viloyatining 2023-yilga mo'ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 22-dekabrda 02/21-3/10-7009-son ma'lumotnomasi). Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy yondashuvdan foydalanish asosida Navoiy EIZning 2022-yildagi investitsion salohiyati 15,6 foizga va jalb etilgan investitsiyalar 6,8 foizga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 2 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola va 2 ta monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 124 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Investitsiyaviy salohiyatni oshirishda marketing strategiyalarini qo'llashning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida hududning investitsiyaviy salohiyatini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish nazariyasi va zamonaviy usullari o'rganilgan. Investitsiyaviy salohiyatini oshirishda hudud imijini yaratish xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari aniqlangan.

Hududga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy o'sish shartlari va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini belgilaydigan, shuningdek, xalqaro integratsiya jarayonlariga, birinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omildir. Mamlakat investitsiya siyosati, uzoq muddatli strategik maqsadlar, ichki va tashqi talablariga javob bergandagina samarali bo'ladi. Hududiy marketing nazariyasida investitsion marketing strategiyalaridan foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mamlakatga yangi "qon" olib kiruvchi vosita sifatida qaraladi. COVID-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan global investitsion muhitning salbiy

tendensiyalari O‘zbekiston uchun maqsadli investitsion dasturlarni qabul qilish va ular uchun eng muvofiq shart-sharoit yaratish muammosini qo‘ydi.

Hududiy marketing bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda investorlarga qulay muhit va shart-sharoitlar yaratishga asosiy e‘tibor qaratiladi. Biroq, globallashtirish jarayoni, raqobatning kuchayishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishning yangi yondashuvini shakllantirdi, uning asosiy ilmiy yondashuvi esa hudud aholisining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan investitsion siyosat yuritishidir.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, uning qonuniy asoslarini, investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish asosida milliy, jahon bozorida eng jozibali imij yaratishdir. Investitsion marketing esa aynan hududda jozibador investitsion muhit yaratishga qaratilgan faoliyatdir. Investitsion marketingning asosiy maqsadi – hududning investitsion faoliyatini takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bozor falsafasidir. Samarali investitsion marketing faoliyatini amalga oshirishga intilayotgan hududlar maqsadli marketing dasturini ishlab chiqishi lozim va uning asosiy vazifalari investitsiya yo‘naltiriladigan korxonalarining bozordagi samarali faoliyatini ta‘minlash va faol marketing sa‘yi-harakatlarini o‘z ichiga olishi kerak. Ushbu holatlar hududiy boshqaruv organlarida marketing vositalaridan samarali foydalanish lozimligini belgilab beradi.

Samarali investitsiya siyosatini amalga oshirishda marketing vositalari va usullarini to‘g‘ri tanlash, ular nafaqat investitsion kompaniya uchun foydali bo‘lishi, balki, hudud aholisining farovon turmushini ta‘minlashi, uning daromadlarini oshirishga asosiy omil bo‘lishi lozim. Marketing vositalari asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni boshqarishda hududning aniq strategik maqsadi, maqsadni amalga oshirishi uchun “yo‘l xaritasi” bo‘lishi talab etiladi. Hududiy marketingning boshqaruv mexanizmi — bu hudud imijini oshirish maqsadlaridagi boshqaruvning tarkibi, jarayoni va funksional yondashuvlarining murakkab o‘zaro bog‘liqligi asosida qurilgan individual mexanizmlarning tarkibiy va funksional birligidir.

Hududiy rivojlanishga erishish uchun mahalliy hokimiyat o‘zining mavjud imkoniyatlari doirasida qiymat yaratish, takomillashtirish va egallashga qaratilgan davlat dasturlari va strategiyalar ishlab chiqiladi. Qiymat yaratish strategiyasi yuqori qo‘shilgan qiymatli biznes faoliyatni yo‘lga qo‘yishga, investorlarning faoliyatini takomillashtirishga yordam berishi va nihoyat, bu orqali hudud aholisi uchun foyda berishini kafolatlashi lozim.


Yuqoridagilardan kelib chiqqanda hududlarda investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha aniq belgilangan marketing strategiyalari bo‘lishi talab etiladi. Ilmiy tadqiqotlarda hududiy marketingning to‘rt xil strategiyalari taklif etiladi: hudud brendini yaratish strategiyasi, diqqatga sazovor joylar yaratish strategiyasi, infratuzilma yaratish strategiyasi, inson omili bilan bog‘liq strategiyalar. Muallif fikricha, O‘zbekiston hududlarida hududiy brend yaratish bo‘yicha marketing strategiyasidan foydalanish investitsion rivojlanishning asosi sifatida qaralishi lozim. Sababi, hudud imiji yaratilmasa, investitsion imkoniyatlar faqat hududiy resurs imkoniyatlarigagina bog‘liq bo‘lib qoladi.

Mahalliy hokimiyat, iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha obyektlari hamkorligiga ko‘ra aholi, raqobat muhiti va tashqi investorlarda shakllangan obrazga yo‘naltirilgan “Navoiy” brend marketing arxitekturasini qurish asosida ijobiy investitsion imijini yaratishga imkon beradigan tashkiliy mexanizmi 1-rasmda tavsiya etiladi. Bunda ikkita asosiy yo‘nalish mavjud: geografik va tematik imij yaratish. Hudud imijini yaratishning taklif etilgan tizimi hudud imijining platformasi deb nomlanadi.

Investitsion imijni shakllantirishning birinchi bosqichida marketing tadqiqotlari olib boriladi. Marketing tadqiqotlari natijalari asosida va to‘plangan ma‘lumotlar asosida hudud investitsion imijini shakllantirish muammolarini aniqlash ko‘zda tutiladi.

Keyingi bosqich loyihani ishlab chiqish va tasdiqlashni o‘z ichiga oluvchi tadbirlardan iboratdir. Ushbu bosqichda hudud imijini shakllantirishning loyihasi ishlab chiqilib, texnik asoslangan holda yo‘l xaritasi belgilanadi.

Yakuniy bosqich hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, loyiha samaradorligini tahlil qilish va baholashdan iborat.



1-rasm. “Navoiy” brend marketing arxitekturasini qurish asosida ijobiy investitsion imijini yaratishga imkon beradigan tashkiliy mexanizm⁶

⁶ Muallif ishlanmasi.

Asosiy e'tiborni investorlarning hududiy resurslardan foydalanib ishlab chiqarishni kengaytirishga emas, balki hudud aholisining turmush farovonligini oshirishga erishishga qaratilgan maqsadlarga asoslangan boshqaruvni yo'lga qo'yish lozim.

Hududiy brend menejmenti hududda brend bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulotlar to'plamini shakllantirish, brendni tashkil etuvchi elementlar to'plamini yaratish, "Navoiy" brend arxitekturasini qurishga asoslanadi. Samarali qurilgan brend arxitekturasi strategik maqsadlarga erishishning asosiy kaliti hisoblanadi. Brend arxitekturasi nafaqat real sektor korxonalari, balki ijtimoiy soha obyektlarini ham o'ziga qamrab olishi lozim.


Brendni rivojlanishi mahalliy darajadan boshlanadi va xalqaro darajagacha amalga oshiriladi. Ichki imij shakllangandagina mintaqaviy imij shakllanadi va natijada xalqaro doirada viloyat salohiyati namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, brendni rivojlantirish ichki bozor subyektlari bilan samarali aloqaga bog'liq. Mahalliy darajada shakllangan imij viloyatni respublika doirasidagi reyting ko'rsatkichlari asosida belgilanadi. Shunga ko'ra viloyatda barcha reyting ko'rsatkichlarida yuqori o'rinlarga ko'tarilishga intilishi lozim.

Umuman olganda, hududning investitsion imiji-hududning investitsion muhiti va salohiyati to'g'risida sarmoyadorlar o'rtasida yuzaga keladigan ijobiy fikrlar to'plamidir, bu yangi investorlarning kelishini osonlashtiradi, mavjud investorlarning investitsiyalar hajmini oshiradi va investitsion loyihalarni bajarishni motivatsiyalaydi.

Dissertatsiyaning **"Navoiy viloyatining investitsiyaviy salohiyatini oshirishda marketing strategiyasidan foydalanishning holati tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va investitsiyaviy salohiyati baholangan, marketing strategiyasi asosida investitsiyaviy salohiyatni oshirish imkoniyatlarining ekonometrik tahlili amalga oshirilgan. Navoiy viloyatining investitsiyaviy salohiyatini marketing strategiyasi asosida oshirish omillari tizimlashtirilgan.

Navoiy viloyati O'zbekiston respublikasida o'zining ulkan iqtisodiy va investitsion salohiyatiga ega hudud hisoblanadi. Viloyat respublika iqtisodiyotining rangli metallurgiya, kimyo va qurilish sanoati yetakchi hududlaridan biridir. Viloyatda Navoiy erkin iqtisodiy zonasi faoliyatining yo'lga qo'yilishi, jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot yetishtirish, zamonaviy, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga imkoniyat yaratgan.

Navoiy viloyati 2018-yilda respublikadagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha eng yuqori investitsiya faolligiga ega bo'lgan viloyat sifatida qayd etilib, ushbu tendensiya 2020-yilgacha davom etgan. Biroq, 2021-yil natijalari bo'yicha Respublikaga jalb etilgan investitsiyalarda viloyatning ulushi 6,3 foizni tashkil etib, hududlar reytingida 5 pog'onani, xorijiy investitsiyalarning ulushi esa 9,8 foizni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha hududiy reytinga 4 pog'onada qayd etilgan (2-rasm).



2-rasm. 2010–2021-yillarda Navoiy viloyatining Respublika investitsiyalaridagi ulushi⁷, %da

Yana bir ijobiy o‘zgarish viloyat investitsiyalari tarkibida xorijiy kapitalning ulushi tahlil qilinayotgan davrning so‘nggi 4 yilida 30 foizdan oshganligi hisoblanadi.

2021-yilda Navoiy viloyatiga jalb etilgan investitsiyalarning qariyb 60,9 foizi chet el investitsiyalari va kreditlarini tashkil etgan. Navoiy viloyatida 2018–2021-yillar davomida 197 ta qo‘shma korxonalar tashkil etilib, 1995–2017-yillar davomida tashkil etilgan (55) korxonalariga nisbatan qariyb 4-marta ko‘proqni tashkil etgan.

Investitsion loyihalar samaradorligini oshirishda Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalar ta‘sirini hisoblash maqsadga muvofiq. Shunga ko‘ra tadqiqotda, Navoiy viloyatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilayotgan investitsiya hajmining o‘zgarishi (Y)ga ta‘sir etuvchi viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi (X1), chakana savdo aylanmasi (X2), iqtisodiyotda bandlar soni (X3) va viloyatda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni (X4) kabi ta‘sir etuvchi omillarni Navoiy viloyati statistika boshqarmasining 2005–2022-yillardagi ko‘rsatkichlar statistikasi asosida investitsiyalarni istiqbolda o‘zgarish dinamikasi aniqlangan.

Regressiyaning eng kichik kvadratlar usuli asosida investitsiya hajmining o‘zgarishiga omillar ta‘sirini baholash orqali quyidagi tenglama hosil qilingan:

$$Y = \frac{X1^{0,93} * X2^{0,091} * X3^{1,14} * X4^{0,07}}{e^{9,129185}} \quad (1)$$

Hosil qilingan (1) regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatligini $\alpha=0,05$ va $k1=13$; $k2=4$ bo‘lganda $F_{jad}=0,314$ koeffitsiyentga tengligini e‘tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=75,7$ tengligidan $F_{jad} < F_{his}$ shartga binoan (1) regressiya tenglamasining ahamiyatligi hamda $DW=1,998$ teng bo‘lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligi hamda olingan tenglamaning ishonchli va adekvatligi aniqlangan.

Regressiya tenglamasi va unda ishtirok etgan har bir omillarning vaqtga ($t=19$) bog‘liq bo‘lgan quyidagi tenglamalar orqali 2026-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari hisoblangan:

$$\text{sanoat mahsulotlari hajmi} — X1 = 9273,6 + 4159,5 * t;$$

⁷ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

chakana savdo tovar aylanmasi — $X_2 = 1310,4 + 606,9 * t$;

iqtisodiyotda bandlar soni — $X_3 = 394,4 + 1,5 * t$;

faoliyat yuritayotgan korxonalar soni — $X_4 = 1827,6 + 1297,3 * t$.

(1) regressiya tenglamasi asosida olingan funksiya asosida Navoiy viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilayotgan investitsiya hajmini ta'sir etuvchi omillarning o'zgarishi hisobiga prognoz qiymatlari hisoblangan (1-jadval)

1-jadval

Navoiy viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilayotgan investitsiya hajmi o'zgarishining ko'p omilli prognozi⁸

Yillar	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya hajmi, mlrd. so'm	Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm	Chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm	Iqtisodiyotda bandlar soni, ming kishi	Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda
2023	20544,9	88304,1	12841,5	422,9	26741
2024	21678,3	92463,6	13448,4	424,4	27774
2025	22839,0	96623,1	14055,3	425,9	29071
2026	24012,6	100782,6	14662,2	427,4	30368

Navoiy viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilayotgan investitsiya hajmi o'zgarishining ko'p omilli prognozi natijalariga ko'ra asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya hajmi 2021-yildagi 19841,1 mlrd. so'mdan, 2026-yilda 24012,6 mlrd. so'mga ortishi kuzatiladi.

Navoiy viloyatiga jalb etiladigan investitsiyalarning 2026-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari viloyatga 2022–2026-yillarda jami 14566 mln. AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalar kiritilishini nazarda tutadi. Navoiy viloyatida amalga oshirilgan investitsion loyihalarning umumiy tendensiyalarini hisobga olgan holda 2022–2026-yillarda Navoiy viloyatida jami 3000 dan ziyod yirik va kichik investitsion loyihalar amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-maydagi "Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5719-sonli qarori qabul qilingan. Qarorda Navoiy viloyati hududi 2030-yil 1-yanvarga qadar innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona etib belgilangan.

EIZlar ma'lum bir mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlarida tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishdan asosiy maqsad esa hududga ko'proq investorlarni jalb etish va ular uchun o'ziga xos bo'lgan investitsion muhit yaratishdan iborat.

EIZlar samaradorligini to'liq holda qiymat ko'rsatkichlari bilan o'lchab bo'lmaydi. Chunki, ijobiy o'zgarishlar nafaqat o'sha hududda, balki qo'shni hududlarda ham sodir bo'ladi. Ushbu holatlar EIZlar faoliyatini baholash va ularning samaradorligini doimiy tahlilini amalga oshirish vazifasini qo'yadi.

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

EIZlar samaradorligini xalqaro tajribalarda tavsiya etilgan mezonlarni hisobga olgan holda baholash usullarini ishlab chiqish lozim. EIZ faoliyati samaradorligini baholashda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar asosida 4 guruh indikatorlar tizimi shakllantirilgan, ular quyidagicha:

1-guruh mutlaq miqdoriy ko'rsatkichlari jami 26 ta indikatorlardan iborat;

2-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlari bo'lib, jami 10 ta indikatorlardan iborat bo'lgan EIZ direksiyasi faoliyat samaradorlik indeksleri;

3-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlari bo'lib, jami 2 ta indikatorlardan iborat bo'lgan EIZlarning viloyat byudjetiga ta'sirini baholash indeksleri;

4-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlari bo'lib, jami 6 ta indikatorlardan iborat bo'lgan EIZlarning hududiy rivojlanish darajasiga ta'sirini baholash indeksleri.

Birinchi guruh bo'yicha tanlangan 26 ta indikator mutlaq ko'rsatkichlar bo'lganligi sababli, ushbu guruh ko'rsatkichlarini EIZlarning qolgan guruh nisbiy indikatorlarni hisoblash uchun foydalaniladi. Qolgan uch guruhdagi indikatorlar tizimi orqali EIZlar faoliyati samaradorligi aniqlanadi.

3 guruhdagi (2-4 guruhlar) integral ko'rsatkichlar asosida baholash tavsiya etiladi va quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$C_{ЭИЗ} = \sum_i^4 (k_i * \sum_j p_{ij} F_{ij}) \quad (2)$$

Bu yerda:

k_i - i – guruh ko'rsatkichi bo'yicha vazn koeffitsiyenti;

p_{ij} - j – mezon ko'rsatkichi bo'yicha har bir i – guruh ko'rsatkichlarining vazn koeffitsiyenti;

F_{ij} - i – guruhning j – mezon ko'rsatkichiga mos keluvchi indikator bahosi.

2-jadval

Navoiy EIZning 2017–2021-yillardagi faoliyat natijalari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari⁹

Guruh	Baholash indiktorlari jamlanmasi	2017	2018	2019	2020	2021	O'rtacha arifmetik	O'zgarish darajasi
2-guruh	Navoiy EIZsi direksiyasi faoliyat samaradorligining jamlanma indeksi	1,06	1,11	1,11	1,13	1,13	1,11	progressiv
3-guruh	EIZlarning viloyat byudjetiga ta'sirini baholash indeksi	0,15	0,11	0,24	0,22	0,29	0,20	regressiv
4-guruh	EIZlarning hududiy rivojlanish darajasiga ta'sirini baholash indeksi	0,846	0,801	0,807	0,867	1,022	0,869	progressiv
	$C_{ЭИЗ}$ (o'rtacha geometrik miqdor)	0,876	0,886	0,901	0,930	0,992	0,917	progressiv

⁹ Muallif ishlanmasi.

Vazn koeffitsiyentlari tanlangan mezonlar bo'yicha i – guruhning j – mezon ko'rsatkichiga mos keluvchi har bir indikatorga nisbatan taalluqli bo'lishi va k_i - i – guruh ko'rsatkichi bo'yicha vazn koeffitsiyenti har bir guruh bo'yicha aniqlanadigan ko'rsatkichlar orqali topiladi va hisoblash asosida formula tavsiya etiladi:

$$C_{ЭИЗ} = 0,55 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^2} + 011 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^3} + 0,33 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^4} \quad (3)$$

Yuqoridagi metodologik yondashuvlardan foydalangan holda Navoiy EIZ faoliyati samaradorligini baholash amalga oshirilgan (2-jadval).

Navoiy EIZning so'nggi 5 yildagi faoliyat samaradorligiga nisbatan past qiymatlarni qabul qildi: Navoiy EIZga yo'naltirilgan investitsiyalarning 2021-yilda ish o'rinlarini yaratishga hissasi yuqori emas; yangi ishlab chiqarish quvvatlaridan 2021-yilda samarali foydalanilmagan; Navoiy EIZning viloyat byudjetiga qo'shadigan hissasi 2021-yilda oldingi yillarga nisbatan yuqori emas.

Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasidagi EIZning faoliyat ko'rsatishini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini doimiy baholab boruvchi tizimni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Taklif etilgan baholash uslubiyoti EIZlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ularning investitsion imkoniyatlarini va salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Navoiy viloyatining investitsiyaviy salohiyatini oshirishda marketing strategiyasidan foydalanishni takomillashtirish yo'llari”** deb nomlanuvchi uchinchi bobida, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Navoiy erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llari aniqlangan. Marketing va axborot-tahlil vositalari asosida Navoiy viloyatining investitsiyaviy salohiyatini oshirish modeli taklif etilgan. Navoiy viloyatining ijobiy investitsion imijini yaratishda hududiy brend strategiyasi taklif etilgan.

Navoiy erkin iqtisodiy zonasida eksportga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha faoliyati xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatli zonalar bilan taqqoslaganda eng oddiy modellardan foydalanish yo'nalishi tanlangan. Asosiy e'tibor import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ish o'rinlari yaratishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. EIZda xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli modelni yaratishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishga ham alohida ahamiyat qaratishni talab etadi. Navoiy erkin iqtisodiy zonasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi model yaratish bo'yicha quyidagi ssenariy variantlari taklif etiladi: a) import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan an'anaviy model; b) global qo'shilgan qiymatni ta'minlashga qaratilgan klasterlash siyosati modeli; v) imij yaratish modeli; g) innovatsion rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan model; d) hududiy rivojlanishga yo'naltirilgan model.

Belgilab olingan strategik variantlar bo'yicha Navoiy erkin iqtisodiy hududi uchun mos keluvchi variantlarni xorijiy investorlarni jalb etishdan kutiladigan samara va imkoniyatlarni tavsifi 3-jadvalda keltirilgan.

